

	<p>“O‘zbekiston”, 2017, 48 bet</p> <p>7. Ochilov E. Badiiy tarjima masalalari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDSHI, 2014</p> <p>8. Hamidov X.X. O‘zbekchadan turkchaga nasriy tarjima muammolari. – Toshkent, ToshDSHI, 2014, 148 b.</p> <p>9. Hamidov X.X. Maqol va idiomalar tarjimasi muammolari. – Toshkent, ToshDSHI, 2017, 128 b.</p> <p>10. Hamidov X.X. “O‘zbek-turk tarjimachiligining dolzarb muammolari”. 1-qism. Abdulla Qodiriy asarlari turk tilida. – Toshkent, 2019, 128 b.</p> <p style="text-align: center;">Internet saytlari</p> <p>1. http://www.kutubxona.uz</p> <p>2. http://www.ziyo-net.uz</p>
7.	<p>Mazkur o‘quv dastur M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining filologiya ta‘lim yo‘nalishi uchun “Практикум по переводу” fanidan tuzilgan o‘quv dastur (https://msu.uz/articles/Filfak-Bak-Rabochiye-programmy-distsiplin) asosida takomillashtirilib, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas’ullar:</p> <p>Sh. A.Aqmanova – UrDU O‘zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti, PhD</p> <p>S.B.Saparova – UrDU O‘zbek tilshunosligi kafedrasida o‘qituvchisi</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>A.Primov – UrDU “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasida mudiri, filologiya fanlari doktori, prof.</p> <p>B.Qilichov – BuxDU “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasida professori, f.f.d.</p>

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI



MATN TARJIMASI AMALIYOTI

FANINING

O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200 000 – San’at va gumanitar fanlar

Ta’lim sohasi: 230000 – Tillar

Ta’lim yo‘nalishi: 60230700 - Amaliy filologiya

Urganch – 2025

Mazkur o'quv dastur Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti kengashining 2025-yil "22" iyun dagi 11-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor S.U.Xodjaniyazov

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i G.R.Matlatipov

Mazkur o'quv dastur Filologiya va san'ati fakulteti Kengashining 2025-yil "25" iyun dagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan. (11-sonli bayonnomasi).

Filologiya va san'at fakulteti dekani D.Q.G'ayipov

Mazkur o'quv dastur O'zbek tilshunosligi kafedrasining 2025-yil "25" iyun dagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan (11-sonli bayonnomasi).

O'zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri A.I.Primov

Tuzuvchi Sh.Aqmanova

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar	
MTA1605	2025-2026	VI	5	
Fan/modul turi	Ta'lim tili		Haftadagi dars soatlari	
Majburiy	O'zbek		4	
	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	Matn tarjimasi amaliyoti	Jami: 60 soat 20 soat ma'ruza 40 soat amaliy	90	150
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad talabalarga publisistik, badiiy va ilmiy matnlarni tarjima qilish texnikasini o'rgatish, tarjima sifatini qiyoslab aniqlash, tarjima matnini tahrir qilish haqida fundamental bilimlar berishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar va tarjima jarayonlariga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini, mazkur fan yo'nalishida amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, zamonaviy tarjimachilikda tarjimon etikasi va muallif oldidagi huquq va burchlarini aniq anglay olish, tarjima metodlarini o'quv jarayonida tadbiq eta olish ko'nikmalarini shakllantirish, tarjima jarayoni, publisistik, badiiy, ilmiy matnlarni tarjima qilish texnikasi, matn ustida ishlashning nazariy va metodologik asoslari, muharrirlik faoliyati, muharrirlik huquqlari, tarjima matnini tahrir qilish, musahhihlik belgilari, tahrir tahlilining o'ziga xos xususiyatlari, tahrirning mantiqiy asoslari, muharrirning matnning uslubiy va estetik jihatini baholash mezonini kabi masalalarni tadqiq etishdan iborat.</p> <p>Jahon kompyuter lingvistikasida matnlarni tahrirlovchi dastur, nutqiy sintezator, matn korpusi, matnlarni lingvostatistik analiz qiluvchi dastur, matnlarni referatlash kabi tadqiqotlar tilshunoslikda katta hajmli lingvistik bazalarning yaratilishiga omil bo'lib xizmat qildi. Shu ma'noda Internet</p>			

tizimidagi ijtimoiy tarmoqlar, ilmiy-texnikaviy matnlar va turli konferensiyalarda yozma va og‘zaki tarjimon dasturlarning o‘rni muhim sanaladi.

II. Asosiy nazariy qism (ma‘ruza mashg‘ulotlari)

Ma‘ruza mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Matn tarjimasi amaliyoti fanining maqsad va vazifalari, predmeti, obyekti va tarjima metodlari.
2. Tarjimonlik faoliyati tarixidan. Yevropa olimlari va o‘zbek olimlarining tarjimonlik faoliyati.
3. Tarjima turlari. Tarjimaning tilshunoslik bilan bog‘liq jihatlari, tarjima birliklari va darajalari.
4. Mashina tarjimasining shakllanish va taraqqiyot bosqichlari.
5. Tarjima dasturidagi lingvistik ta‘minotning semantik va mantiqiy asoslari.
6. Mashina tarjimasida matn tahlili.
7. Tarjimaning grammatik muammolari. Grammatik ma‘no turlarining tarjimada ifodalanishi. Tarjimaning grammatik transformatsiyasi.
8. Tarjimaning pragmatik muammolari. Informema va pragmema masalasi.
9. Tarjimaning stilistik muammolari. Leksik transformatsiya
10. Muallif va tarjimon: til topish muammosi. So‘z - tarjimaning ish materiali. Tarjimaning frazeologik muammolari.

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Turli matnlarni tarjima qilish texnikasi.
2. Turkologiyada mashina tarjimasining o‘rganilishi.
3. Xalqlar aloqasining til va tarjimadagi aksi. Matn ustida ishlash.
4. Avtomatik tarjima tizimida til va nutq birliklarining o‘rni.
5. Lingvistik ta‘minotda ingliz va o‘zbek tillaridagi leksemalarning derivativ imkoniyatlari.
6. Avtomatik tarjimada so‘z birikmalarining semantik mantiqiy imkoniyatlari.
7. Elektron tarjimada terminografiya.
8. Mashina tarjimasida leksikografik masalalar.
9. Matnlarni avtomatik tarjima qilish algoritmi ustida ishlash.

10. Badiiy vositalarni tarjima qilish masalasi
11. Tarjimada leksik birliklarni talqin etish.
12. Ilmiy matnlar tarjimasi ustida ishlash
13. Ilmiy uslub va uning o‘ziga xos jihatlari
14. Ilmiy maqolalar tarjimasi
15. Matn ustida ishlashning nazariy va metodologik asoslari
16. Tarjima matnini tahrir qilish
17. Tarjima va madaniyat
18. Tahrir tahlilining o‘ziga xos xususiyatlari
19. Tahrirning mantiqiy asoslari
20. Ma‘nodagi xatolarni bartaraf etish

III. Mustaqil ta‘lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta‘lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Publitsistik matnlar tarjimasi ustida ishlash.
2. Ijtimoiy-siyosiy terminlar va ularning tarjimasi.
3. Badiiy matnlar tarjimasi ustida ishlash
4. Ilmiy tadqiqotga manba qilib olingan tarjima asarlarni tahlil qilish
5. Badiiy asar tarjimasining tahriri
6. O‘quv qo‘llanma tarjimasining tahriri
7. Ilmiy asar tarjimasining tahriri
8. Tarjima variantlarining qiyosi
9. Ilmiy uslubning o‘ziga xos xususiyatlari
10. Tarjimaning frazeologik muammolari
11. Tarjima qilishda grammatik transformatsiyalardan foydalanish
12. Leksik transformatsiyalar
13. Tarjima metodlari
14. Maxsus tarjima metodlari asosida sharq tillaridagi ilmiy maqolalarni tarjima qilish
15. Maxsus tarjima metodlari asosida sharq tillaridagi badiiy asarlardan birini

	<p>tarjima qilish</p> <p>16.Dunyo tarjima tarixi</p> <p>17.Alisher Navoiy va tarjima</p> <p>18.Tarjima turlari</p> <p>19.O'zbekistonda tarjimonlik faoliyati</p> <p>20.Tarjimada grammatik ekvivalentni tanlash. Tarjimonlikda interferensiya hodisasi</p> <p>21.She'riy tarjima</p> <p>22.Muqobilsiz leksika. Milliy realiyalar tarjimasini</p> <p>23.Og'zaki tarjima va avtomatlashtirilgan tarjima. Badiiy va ilmiy matnlarda mashina va inson tarjimasining farqli belgilari. Tarjima jarayonida inson.</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>
3.	<p>IV. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - "Matn tarjimasini amaliyoti" fanining nazariy va amaliy muammolari, uning filologik fanlar tizimidagi o'rni, tarjima jarayonlariga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini, mazkur fan yo'nalishida amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, zamonaviy tarjimachilikda tarjimon etikasi va muallif oldidagi huquq va burchlarini aniq ang'ay olish, tarjimashunoslikni o'rganishning ahamiyati va metodikalari bo'yicha tasavvur va bilimlarga ega bo'lishi; - O'zbek va jahon tarjimachiligidagi o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarni o'zlashtirish, tarjima qilingan manbalarni aslyat bilan qiyoslab o'rganish, tarjima va uning turlari, muallif va avtomat tarjimasini o'rtasidagi farqlarni aniqlash ko'nikmalariga; - O'qish-o'qitish va ish jarayonidagi kommunikativ aloqalarning namoyon bo'lishida tarjima usuli va tarjimonning ahamiyati, tarjima matnning zaruriy

	<p>qismlarini aniqlay olish, ularni tarjima qilish metodikasini egallash, materiallarni tezkor va sifatli tarjima qila olish texnikasini o'zlashtirish, uni ilmiy ish sifatida shakllantirish, ilmiy adabiyotlarni tahlil qila olish va ilmiy ishga tatbiq eta olish va talabalar konferensiyasi hamda seminarlarida, amaliy mashg'ulotlarda taqdim eta olish malakalariga ega bo'lishi lozim.</p>
4.	<p>V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruza; • "keys-stadi"lar; • amaliy topshiriqlar (mantiqiy fiklash, tezkorsavol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimot texnologiyasi; • intellekt xaritalar;
5.	<p>VI. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va metodik tushunchalarni o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, tarjima nazariyasi rivojiga oid jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat shakllarida berilgan vazifa hamda topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish topshirish.</p>
6.	<p>VII. Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. G'afurov I., Mo'minov O. Tarjima nazariyasi. "Tafakkur bo'stoni". – Toshkent, 2012. 2. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. "Fan" –Toshkent, 2005. 3. Abdurahmonova N. Mashina tarjimasining lingvistik ta'minoti. – Toshkent, 2018. – 175 b. 4. Jo'rayev K. Tarjima san'ati. "Fan" –Toshkent, 1982. <p>Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. 6. Mirziyoyev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi". – T.: